

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ
VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITET

REFERAT

Mavzu: Chorva mollarini urchitish fanining xalq
xo`jaligidagi ahamiyati

Tekshirdi: Suyundikov Kamol

Bajardi: _____

TOSHKENT-2014

Reja:

1. *Chorvachilik tarmog`ining halq xo`jaligidagi ahamiyati, hozirgi ahvoli, iqtisodiy islohatlar.*
2. *Dehqon (fermer) xo`jaliklarini rivojlantirishdagi chora tadbirlar.*
3. *Chorva mollarini urchitish fanining tarixi, maqsadi va vazifalari.*
4. *Hayvonlarni xonakilashtirishning zamoni va makoni.*
5. *Uy hayvonlarining qadimgi ajdodlari.*
6. *Xonakilashtirish jarayonida bo`lgan hayvonlardagi o`zgarishlar.*

Chorvachilik – xalq xo'jaligining muhim, ajralmas tarmog'idir. Chunki chorvachilik mahsulotlari aholining go'sht, sut, tuxum, asal mahsulotlariga bo'lgan talabini, sanoatning esa jun, teri, parranda patiga, dehqonchilikning o'g'itga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi.

Agar O'rta Osiyoda chorvachilikning rivojlanish tarixiga nazar tashlasak, unda qadim zamonlardan buyon, ya'ni bronza davrida qoramollar urchitib kelinganligi ta'kidlanadi.

Masalan: XVIII asrda Qoraqalpoq o'lkasida qoramolchilik rivojlangan. Keyinchalik 1927-30 yillarda sovxoz kolxozlarning tashkil qilinishi, chorvachilikda keskin o'zgarishlarga olib kelgan. 1930 yilda O'zbekistonda birinchi chorvadorlar s'ezdi bo'lib o'tgan.

Xozirgi vaqtda O'zbekiston chorvadorlari oldida turgan muhim vazifa o'zimizda ishlab chiqarilayotgan chorva mahsulotlarining samaradorligi, iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilab xalqimizni ta'minlashdir.

Dehqon xayotini mustaxkamlash, mustaqil erkin – dehqon (fermer) xo'jaligidagi yirik salohiyotini O'zbekiston aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlay olishga yo'naltirish – bugungi kunda tadbirkorlik faoliyatining bir ko'rinishi bo'lgan dehqon (fermer) xo'jaliklarini rivojlantirish siyosatining asosini tashkil etadi.

Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan dehqon (fermer) xo'jaliklarining soni 120 mingdan oshib ketdi. Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan dehqon (fermer) xo'jaliklarini rivojlantirish bo'yicha ko'pgina farmon va qarorlar qabul qilingan.

Ma'lumki, chorvachilikning nazariy asoslarini – zootexniya fani hal qilib beradi. Zootexniya atamasini birinchi marta fransuz olimi J.Bolsman 1768 yilda adabiyotda qo'llagan. Zootexniya so'zi lotincha «Zoo » - hayvonot , «texniya» - mahorat ma'nosini anglatadi. Demak, zootexniya fani hayvonlardan yuqori mahsulot olish maxoratini o'rgatadi. Zootexniya fani o'z navbatida iqtisodiyot, veterinariya, agronomiya, biologiya fanlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Shunday qilib, chorva mollarini urchitish, hayvonlarning mavjud zotlarini takomillashtirish, yangi sharoitga moslashgan iqtisodiy samara beradigan yangi tiplarini barpo etish haqidagi ta'limotlarini o'rgatuvchi fandir. Fanning tarixiga nazar tashlaganimizda A.G.Orlov, V.I.Shashkin, S.P.Bestujev, P.D.Mazoev, V.Bekvel, M.M.Bushuev kabi seleksionerlarning tug'ma mahoratiga, sezgirligiga tayangan «zavod san'ati» va davr taqozosi bilan rivojlanib borib genetika, fiziologiya, bioximiya, sitalogiya fanlariga asoslangan «Chorva mollarini urchitish» degan mustaqil fanga aylandi.

Fanning asosiy maqsadi hayvonlarning mahsuldorlik va irsiy belgilarini yaxshilashdan iboratdir. Bu esa o'z navbatida tanlash, juftlash va olingan avlodni maqsadga muvofiq ravishda o'stirish orqali amalga oshiriladi.

Hayvonlarning individual rivojlanishini, eksterer, interer, konstitusiyasini, mahsuldorligini va uni hisobga olishni, nasldor mollarni kelib chiqishiga qarab, avlodning sifatiga qarab baholashni, zot haqidagi ta'limotni, mollarni urchitish usullarini o'rganish ham mazkur fanning maqsadiga kiradi. Bundan tashqari mollarning mahsuldorlik ko'rsatkichlarini oshirishdan tashqari ulardan olinadigan mahsulot sifatini yaxshilash ham muhim ahamiyatga ega.

Chorva mollarining serpushtligini oshirish, konstitusiyasini mustahkamlash, sanoat texnologiyasi asosida mahsulot ishlab chiqarishga moslashtirish, ulardan uzoq muddatga foydalanish ham asosiy vazifalar qatoriga kiradi. Hozirgi zamonda seleksionerlar EHM lardan foydalanishni, keng ko'lamda seleksiya ishlarini olib borishni ham bilishi kerak. Chorva mollarini urchitish fanini bilish uchun genetikaning irsiyat va o'zgaruvchanlik ta'limotiga, biotexnologiya fanining hujayralar injeneriyasi, embrionlarni ko'chirish usullarini ham yaxshi bilishi kerak.

Uy hayvonlarini takomillashtirishni o'rganish o'sha hayvonning belgilarini, alomatlarini takomillashtirish, o'zgartirishga va boshqarishga yordam beradi. Qishloq xo'jalik hayvonlarining kelib chiqishi va ularni xonakilashtirish ta'limotiga E.A.Bogdanov, S.N.Bogolyubskiy, E.F.Liskun, V.V.Kovalskiy va boshqalar katta hissa qo'shdilar.

Ibtidoiy jamoa tuzumidagi odamlarning yashash sharoiti, hayvonlarni qo`lga o`rgatishga majbur qildi. Barcha turdagi hayvonlar ham tezda qo`lga o`rganavermagan. Xonakilashtirish uzoq davom etgan murakkab jarayondir. Masalan, mavjud 8 mingdan ortiq turdagi sut emizuvchilardan faqatgina 60 tasi xonakilashtirilgan. Hayvonlarning kelib chiqishini va evolyusiyasini o`rganish uchun quyidagilarni aniqlash lozim:

1. Uy hayvonlarining zoologik tizimda tutgan o`rni. Buning uchun anatomik va genetik taqqoslash usuli qo`llaniladi.
2. Xonakilashtirish davrida va keyingi yaxshilanish jarayonida kechgan o`zgarishlarning sabablari;
3. Xonakilashtirish makoni va zamoni. Buning uchun poleonalogik va arxeologik qazilmalardan, g`orlardan, xalq og`zaki ijodidan foydalaniladi.
4. Uy hayvonlarini tarqatish jarayonini o`rgatish.
5. Uy hayvonlarining yovvoyi ajdodlarini izlab topish.

Taxminlarga ko`ra hayvonlarni xonakilashtirish eramizdan 8 – 10 ming yil ilgari boshlanib, tosh asriga to`g`ri keladi. Hayvonlarni xonakilashtirish, ovchilik manbalarining kamayishi, odamlarning qabila va elat bo`lib yashash sharoiti bilan bog`liq.

Olimlar hayvonlarni xonakilashtirishning 6 ta o`chog`ini aniqlaganlar:

1. Hindi-Xitoy yarim oroli cho`chqalarni, buyvollarni, o`rdaklarni, tovuqlarni, g`ozlarni xonakilashtirish makoni hisoblanadi.
2. Hindistonda esa buyvollar, gayallar, zebular, asalarilar xonakilashtirilgan deb taxmin qilinadi.
3. Kichik Osiyo, Kavkaz, Eronda yirik shoxli mollar, yilqilar, qo`ylar, cho`chqalar, tuyalar xonakilashtirilgan.
4. O`rtaer dengizi atrofida qoramollar, otlar, qo`ylar, echkilar, quyonlar, g`ozlar.
5. Janubiy Amerikada kurkalar.
6. Afrikada eshaklar, cho`chqalar, itlar, mushuklar xonakilashtirilgan.

Xonakilashtirish jarayoni o'z navbatida ikki bosqichga bo'linadi. Birinchi bosqichda qo'lga o'rgatish va ikkinchi bosqichda xonakilashtirish.

Inson nazorati ostida urchitilib, ularning go'shtidan, sutidan, junidan, tuxumidan kundalik hayotda foydalanilsa, uy hayvonlari deyiladi. Uy hayvonlarini takomillashtirish jarayonida inson mehnati asosiy rol o'ynaydi. Lekin hamma qo'lga o'rgatilgan hayvonlar ham uy hayvoni bo'lavermaydi. Qo'lga o'rgatilgan hayvon uy sharoitida ko'paymaydi. (Masalan: Xindiston fili.). Qo'lga o'rgatilgan hayvonlarda yovvoyilik alomatlari to'liq saqlanib qoladi.

Hozirgi davrda ham qo'lga o'rgatib, uni qo'ylar bilan chatishtirish natijasida qozoqi arharo-merinos keltirib chiqarildi. O'zbekistonning ot zavodlarida qulonlarni qo'lga o'rgatish tajribasi ijobiy natija bergan. Eng birinchi qo'lga o'rgatilgan hayvon itdir.

Undan keyin qo'ylar, echkilar, cho'chqalar qo'lga o'rgatilgan. Qishloq xo'jalik hayvonlari deganimizda, qishloq xo'jaligining biron tarmog'ini tashkil etib, uning mahsulotidan inson ehtiyoji uchun foydalaniladigan uy hayvonlari tushuniladi.

Qishloq xo'jalik hayvonlarining kelib chiqishi.

Qoramollar: Kelib chiqishiga qarab ikkita turga bo'linadi. Buqasimonlar (BOS) va buyvollar (Bibalis). Buqasimonlar o'z navbatida 4 ta turga bo'linadi. Xususiylar qoramollar (Bostaurus), yaklar (Bospoefgus), bizonlar (Bosbison).

Xususiylar qoramollarning yovvoyi ajdodi deb ko'pchilik olimlar turni hisoblaydilar. Turning asosiy vatani Evropadir. Bundan tashqari tur Sibir, Xitoy, Shimoliy Afrika, Suriya, Falastinda ham uchragan. Turlar 8-10 tadan botqoqliklarda, cho'llarda, daryo irmoqlarida yashagan. Turning eng so'nggi vakili 1927 yilda Polsha qo'riqxonasida halok bo'lgan.

Turlar 800-1200 kg keladigan, qarchig'ay balandligi 200 sm, muskuldor, shoxdor, qora qo'ng'ir tusli hayvon. U juda baquvvat bo'lganligi uchun xalq o'z qaxramonlarini tur deb ulug'laganlar.

Zebu (Bostaurus indicns). Zebularning ikkita tipi (Xindiston va ariviy) mavjud. Uning eng karakterli xususiyati qarchi-g'ayida o'rkachning borligidadir.

Shu o'rkachda ozuqa moddalari zaxira holda saqlanadi. Zebu issiq sharoitga moslashgan, suti quyuq.

Hindiston peshonador buqalari (banteng, gaur, gayal). Banteng o'rta bo'yli, keng peshonali, yo'g'on shoxli, tojdor, muskuldor hayvon Hind-Xitoy, indoneziya sho'rxok erlarida yashaydi. Gaur – jungli o'rmonlarida yashab tirik vazni 1000 kggacha, qarchig'ay balandligi 200 smgacha keladi. Gayallar Vetnamda yashaydi, suti yog'dor.

Yak-Qo'toslar. Baland tog'larda yashaydi. Vatani Tibet tog'lari, yovvoyi va qo'lga o'rgatilganlari bor. Uning asosiy xususiyatlaridan biri tanasining pastki qismi qalin jun bilan qoplangan. Qoplovchi junlar uzunligi 70-90 sm. Bundan tashqari, yaklarga ko'krak umurtqalari juda yaxshi rivojlangan. Erkaklari 340-400 kg, urg'ochilari 230-280 kg, sutdorligi 500 kg, yog'dorligi 7-9%. Transport vositasi uchun foydalaniladi. Qoramol bilan chatishtirishdan olingan erkaklari nasl bermaydi, urg'ochilari nasl beradi.

Buyvollar (*Bubalus dadelus*) – ikki ko'rinishi mavjud – a) Osiyo buyvoli, b) Aziya buyvoli.

Yilqilar asosan Prjevalskiy otlaridan tarpanlardan kelib chiqqan.

Qo'ylar muflonlar, arharlar, argalidan kelib chiqqan. Cho'chqalar yovvoyi kabanlardan kelib chiqqan.

Tuyalar. Ikki o'rkachlisi baktrianlarga, bir o'rkachlisi promeparlarga bo'linadi.

Xonakilashtirish jarayonida hayvonlarning tashqi qiyofasi, tusi, jussasi, tirik vazni, mahsuldorligi chidamliligi o'zgardi. Masalan, otlarda xo'jalik tipiga qarab ularning ekstererida o'zgarishlar kuzatiladi.

Darvin aytganidek, hayvon va o'simliklar «inson hukmdorligi ostida» katta o'zgarishlarga uchragan. Bunda Davrin barcha chorva mollariga xos bo'lgan ba'zi bir umumiy belgilarga: a) zotlarning ko'pligiga; b) guruhlariga kiradigan zotlar bir-biridan keskin farq qilishiga, ularning hammasi birgalikda o'zining yovvoyi ajdodidan keskin farq qilishiga; v) barcha zotlarga mansub xonaki hayvonlar odamning talab va ehtiyojlariga moslashganligiga e'tibor bergan.

Har qanday zotga mansub hayvonlar o'zining urug'boshisi formasi bilan taqqoslab ko'rilsa, ular o'rtasida talaygina o'xshashliklar bo'lishiga qaramay ko'pgina belgilarida katta farq ham borligi ko'zga tashlanadi. Eng muhimi shundaki, har bir zotga mansub bo'lgan xonaki hayvonlarda odatda, odam uchun foydali belgilar: sersut hayvonlar elinining rivojlanganligi, serjun qo'ylar junining xususiyatlari, cho'chqalarda yog' va go'sht mahsuldorligi rivojlanganligi va hokazolar ayniqsa keskin namoyon bo'ladi.

Xonaki hayvonlarning o'z yovvoyi ajdodlariga nisbatan kuchliroq o'zgaruvchanligi: hayvonlarda xo'jalik uchun foydali belgilarining, shu jumladan serpushtlik, tez etiluvchanlikning yuqori darajada rivojlanganligi; jinsiy funksiyasi, gavda tuzilishi va kattaligi, nerv faoliyati va rangi (tusi)ning o'zgarishi; xonaki xayvonlarning og'ilda, kam xarakat sharoitida boqishga, o'ziga xos em-xashakni ko'p miqdorda iste'mol qilishga moslashganligi ushbu xayvonlarda sun'iy tanlash ta'sirida vujudga kelgan asosiy o'zgarishlar jumlasiga kiradi.

Adabiyotlar:

1. T.E.Ostonaqulov, I.T.Ergashev, K.Q.Shermuhamedov, B.A.Normatov «Genetika asoslari» Toshkent 2003 y.
2. M.N.Aberqulov, K.K. Shermuhamedov Genetikadan amaliy mashg`ulotlar. Toshkent 2004 y.
3. K.K. Shermuhamedov, M.N.Aberqulov. «Genetika» ma`ruza matnlari 2000 yil.
4. Gershenzon M.N. Osnovo` sovremennoy genetiki. Kiev, «Urojay», 1979.
5. Gulyaev G.V. Genetika. M., «Kolos», 1984.
6. Dubinin N.P. Obshaya genetika. M., «Nauka», 1970.
7. Maqsudov Z.Yu. Umumiy genetika. T., «O`qituvchi», 1980.
8. Morozov E.M., Tarasevich E.I. Anoxina V.S. Genetika v voprosax i otvetax. Minsk, 1989.
9. Sobirov P.S., Do`stqulov S.D. Genetika asoslari va chorva mollarini urchitish. T., «Mehnat», 1989.
10. Sobirov P.S., Do`stqulov S.D. Genetikadan amaliy mashg`ulotlar. Samarqand, 1990.
11. Krasota V.F., Lobanova V.T., Djaparidze T.G. «Razvedene selskoxozyaystvenno`x jivotno`x» M., Agropromizdat, 1990 g.
19. www.ziyonet.uz